

“IMOM MOTURIDIY” ROMANIDA KONFLIKT MUAMMOSI

Eshbekova Dildora¹

Nukus shahri 32-sonli maktab

KEYWORDS

tarixiy roman, voqea, g'oya,
obraz, badiiy tahlil, sujet,
konflikt, talqin tahlil, mahorat.

ABSTRACT

ushbu maqolada sujet va konfliktning badiiy asardagi o'rne va ahamiyati taniqli adib Luqmon Bo'rixonning “Imom Moturidiy” tarixiy romani misolida o'rganib chiqilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15150089**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Adabiyot nazariyasi sujet –epik, lirik va dramatik asarlarning asosiy mag'zi, ya'ni mazmunini ochib beradigan, biri ikkinchisini taqozo qiladigan, o'sib boruvchi hayotiy voqealarning badiiy shakli; konflikt esa nafaqat asar qahramonlari o'rtasidagi to'qnashuv, balki ularning ichki dunyosida aks etadigan qarama-qarshilik sifatida izohlangan. Bu masala D.Quronov quyidagicha yondashadi: “Sujet bilan konflikt orasida ikkiyoqlama aloqa kuzatiladi” bir tomondan, sujet konfliktlarni umumlashtirib namoyon qiladi, ikkinchi tomondan, konflikt sujetni harakatga keltiruvchi asosiy kuch sanaladi. Ko'rinadiki, sujet va konflikt badiiy asarda uyg'unlashadi, biri ikkinchisini taqozo qiladi”² darhaqiqat hayotda insonlar o'rtasida yuz berishi mumkin bo'lgan barcha voqea va ziddiyatlar badiiy asarda turli ko'rinishida aks etadi. Mohir yozuvchi real hayotdagi voqealarni asariga o'ziga xos usulda singdirib, konfliktni sujetning qiziqarli va ta'sirchan chiqishiga xizmat qildiradi. Bundan tashqari, konflikt asar bosh g'oyasini ochib berishda muhim unsur hisoblanadi.

Ma'lum bo'ladiki, umumiy shaklda ziddiyat ikki tomon o'rtasidagi munosabatlardagi qarama-qarshilikni anglatadi. Konflikt badiiy asarni ma'lum bir kontekstda tashkil etadigan qarama-qarshiliklar tizimidir. Badiiy asar tahlilida ziddiyatlar kompozitsiya va sujet yordamida aniqlanadi. Hamma gap tomonlarning qarama-qarshiliklariga borib taqalar ekan, konfliktni asar badiiy g'oyasi yadrosi, ya'ni markazi deb hisoblash to'g'ri bo'ladi. Bunda asar yo'nalishini konflikt belgilaydi.

¹ Nukus shahri 32-sonli maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

² Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent, 2018, 176-bet.

Sujetni esa yozuvchi turli yillar bilan yaratadi. Adabiyotshunoslikda, odatda, sujetning, asosan, uchta turi farqlanadi: “yasama”, “tayyor” yoki “hayotiy”, “sayyor” yoki “o’zlashtirilgan”³. Yasam sujet ijodkorning obrazli tafakkuri mahsulidir. Bu turdagi sujetli asarlar ijodkor fantaziyasi asosida yaratilib, tasavvurining cheksiz imkoniyatlarini ochishga xizmat qiladi. Sayyor yoki o’zlashtirilgan sujet esa yozma adabiyotlarda mavjud bo’lgan ko’chib yuruvchi sujet hisoblanadi. Sujetning bu turida yozuvchi yozma adabiyotlarda shu kungacha mavjud bo’lgan sujetga yangicha ruh, yangicha ma’no beradi. Tayyor yoki hayotiy sujetlar o’z nomi bilan hayotiy voqealarni aks ettiradi. Mavjud “prototip” shakldagi tarixiy va hayotiy voqealarni inkor qilmagan holda ishlash sujetni yana qayta yaratuvchi ijodkorni istasa-istamasa chegaralaydi. Yozuvchi tarixiy asar yaratishda qachonlardir bo’lib o’tgan hayotiy “tayyor” voqealarga tayanib, uni o’z badiiy tafakkurida qayta sintezlab, kitobxonga taqdim etadi. Biroq hamma ijodkorlar ham asar yaratishda tayyor sujetga murojaat qilavermaydi. Chunki tarixiy asar yozish adibdan kata mahorat, chuqur izlanish, teran salohiyat, tarixni yaxshi bilish va alohida qobiliyat talab qiladi. O’zbek adabiyotida tayyor sujet asosida yaratilgan asarlar talaygina. Oybekning “Navoiy”, O.Yoqubovning “Ulug’bek xazinasini”, P.Qodirovning “Yulduzli tunlar”, I.Sultonning “Alisher Navoiy”, L.Bo’rixonning “Imom Moturidiy” kabi sujeti tarix voqealari asosiga qurilgan badiiy yaratmalar shunday asarlar sirasiga kiradi.

E’tiborli jihati, yangi davr adabiyoti ham sujeti tarixdan suv ichgan asarlarga guvoh bo’lmoqda. Luqmon Bo’rixon tarixiy asar yaratish an’anasini davom ettirib, tarix zarvaraqlaridan bizgacha yetib kelgan ma’lumot, afsona va rivoyatlarni yig’ib, chuqur o’rganib, fiqh, aqida va siyrat fanlari namoyondasi Imom Moturidiyning hayotiy va ishonarli badiiy qiyofasini qayta jonlantirishga muvaffaq bo’ldi. “Imom Moturidiy” –jonli hayot voqealarga, qahramonlar xarakteri jihatidan bir-biridan har taraflama (yashash sharoiti, tashqi va ichki olami) tubdan farq qiladigan qarama-qarshi xarakterlarga boy asar. Zamon fojiasini tushuntirishda muallif sujet rang-barangliklariga alohida e’tibor bergan va bu o’qirmanni zeriktirmaydi.

Keying yillarda o’tmish va bugungi kun haqiqatlari omuxtalashtirilgan zamonaviy tarixiy asarlar paydo bo’lishi davr talabi o’laroq izohlanmoqda. Globallashgan davr fojialarini tushuntirishda o’tgan asrda aytilgan “O’tmishga qaytib ish ko’rmoq xayrlidir” o’gitiga asosan, yaxshilik va yomonlik kabi adabiy muammolarga qayta-qayta murojaat qilinmoqda. L.Bo’rixon “Imom Moturidiy” romanida bosh qahramonni o’quvchiga komil inson sifatida taqdim qiladi.

Adabiyotshunoslikda ilohiy voqealar bilan bog’liq hikoyalar mavjud bo’lib, ular asosida butun koinot Ollohning izmida ekanli, Haqning o’zi bilguvchiligi haqida eslatiladi. “Imom Moturidiy” romanida ham aynan shu masalalarga e’tibor qaratilgan. Roman diqqat-markazidagi qahramon –komil inson Imom Moturidiy va tarixiy shaxs Imom Moturidiylarni indentifikatsiya qilish esa o’zini oqlamaydi. Bunda muallif estetik idealni berishda aynanlik emas, balki kitobxonga yaqinlashtirish –xalqchilik tomonidan boradi.

³ Qarang: Umarov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –Toshekt:“Xalq merosi”, 2004, 124-bet.

“Imom Moturidiy” romani sujetining o‘ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin: 1) roman bosh qahramoni Imom Moturidiy bilan bog‘liq tarixiy, hayotiy va to‘qima sujetlar asosiga qurilgan; 2) romanda Imom Moturidiy, Mastonbibi, Tusiy, Xolid Xalaj, Surayyo, Izro Dovut bilan bog‘liq og‘izdan-og‘izga ko‘chib yurgan afsona va tarixiy rivoyatlar (Alisher Navoiy, Abu Bakr Muhammad Narshaxiy, Abu Tohirxo‘ja Samarqandiylarning asarlari) romanga stilizatsiya qilib kiritilgan.

“Imom Moturidiy” romani sujetidagi voqealar bir-birini to‘ldirgan. Xronikal-konsentrik sujetni⁴ bir kompozitsiyada mahorat bilan tutib turuvchi retrospeksiya tasvir usuli adib badiiy g‘oyasiga oson yechim bergan. L.Bo‘rixon asar aurasiga mos ritm va xarakterlar o‘rtasidagi konfliktni berishda sujetning retrospektiv⁵ - “...zarur o‘rinda asar vaqtdan chekinib, o‘tmishda yuz bergan voqealarni tasvirlash” va konsentrik⁶ - “...voqealar orasida vaqt munosabati (natija sababdan keyin keladi)” turlaridan unumli foydalangan. Voqealarni hayolan qayta bayon qilishda u oltin o‘rtalikni topgan. Kitobxon chalg‘ib qolmaydi. Bu esa muallif badiiy niyatini o‘quvchi yaxshiroq anglashini ta‘minlagan.

Yozuvchi Imom Moturidiyning kamtar va ayni paytda ulug‘vor shaxs ekanligini ko‘rsatish uchun romanda obrazlarni bir-biriga qarshilantirish usulini mohirlik bilan qo‘llagan. Jumladan, Imom Moturidiy –Mastonbibi, Imom Moturidiy –Vosiq ibn Qosim, Imom Moturidiy –Xolid Xalaj, Imom Moturidiy –Idris Shomiy, Mastonbibi -To‘tiyo xonim, Mastonbibi –Surayyo kabi qahramonlar asarda xatti-harakati yoki fe‘l-atvori jihatidan bir-biriga zid tarzda harakat qiladi.

Ko‘rinadiki, L.Bo‘rixon romanda badiiy konflikt dan ham unumli foydalangan. Zero, M.Qo‘shjonov ta‘kidlagandek: “Konflikt hayotdagi real qarama-qarshiliklarning badiiy ifodasidir. Asarda esa u sujetni harakatga soluvchi asosiy kuch, rivoj beruvchi prujina, richagdir. Sujetni asar skelti deb faraz qilsak, konflikt unga jon beradigan, harakatga keltiradigan yurakdir”⁷. “Imom Moturidiy”da ham konflikt romanning prujinasi, richagi bo‘lib xizmat qilgan. Romanda konfliktning bir necha xil va turlaridan foydalanilgan: 1. Xarakterlar konflikti⁸ (Imom Moturidiy va boshqa qahramonlar o‘rtasidagi konflikt); 2. Bosh qahramon va muhit konflikti (Imom va mo‘tazichilar); 3. Ichki psixologik konflikt (Imom Moturidiy, Xolid Xalaj, Mastonbibi, Vosiq ibn Qosim, Idris Shomiy kabi obrazlarning ichki ziddiyati).

Romanda Imom Moturidiy va xotini Mastonbibi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar qiziqarli syujetlar orqali tasvirlangan. Ba‘zan kitobxon Mastonbibini ayblasa, ba‘zan uni ham tushunishga harakat qiladi. Yozuvchi Imom Moturidiy bilan qirq yil bir yostiqa bosh qo‘yib, mol-dunyo ilinjida har ko‘yga tushgan, butun hayoti davomida boshqalarga taqlid qilib, umrini behuda umid va kutish bilan o‘tkazgan ayol Mastonbibi qiyofasini kinoyaviy badiiy modusda chizgan. Bahaybat chinorga yashirilgan xazian hayoli aks etgan sujet roman

⁴ Bir sujetning bu turini aniqlashtirib olishda H.Umarovning xronikal-konsentrik sujet haqidagi tasnifidan foydalandik. Qarang: Umarov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi, 125-bet.

⁵ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent: “Xalq merosi”, 2004. 108-bet

⁶ O‘sha asar, 104-bet

⁷ Qo‘shjonov M. Tanlangan asarlar. –Toshkent: “Sharq”. 2018, 338-bet.

⁸ Biz bu konfliktning ushbu turlarini aniqlashtirib olishda D.Quronovning konflikt haqidagi tasnifidan foydalandik. Qarang: Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish, 109-bet.

qiziqarliligini oshirgan.

Mastonbibi Imom Moturidiy bilan turmushlarining dastlabki yillarida rashk va alamni so'ndirish uchun o'zi ishonadigan ro'yoni ro'yobga chiqarish tashvishiga tushdi. Uningcha, Imom Moturidiy chinor daraxti kavagiga dinor-dirham, oltinlarni yashirib qo'ygan. Bu hayol ayolga sira tinchlik bermaydi. Kunlardan bir kun uyda hech kim yo'qligida akasini uyga chaqirib, bor gapni aytadi. Akasi esa daraxtni pullash va boylik toppish uchun duradgor olib keladi. Usta esa daraxtda ikki ilon borligini bahona qilib, chiqib ketadi. Ushbu voqeadan keyin Mastonbibining akasi daraxtga yaqinlashish xavfli ekanligini aytadi. "Bir yaxshi gumondamen, -dedi hayolchan ko'z qisib, -qaydagi mor, anda tillo bor. Alhol erring ul joyg'a xazina yashirmish..."⁹. Mastonbibi akasi aytgan gapdan kata umid qilar, kelajakda eri yashirgan xazian tufayli boyobadavlat bekaga aylanishini o'ylab, o'zini ovutardi. Bu paytda uning eri Abu Mansur ustozining tashrifi va e'tiqod tomiriga urilgan tig' qayg'usida Jusjoniya mudarrisligiga bel bog'laydi. "Afsus, ming afsus, -ma'yus bosh chayqab, ko'zlarini bir zum yumdi hazrat Iyodiy, -dinimiz ertasidan qo'rquvim bisyor. E'tiqod tomirig'a tig' urilmoqda". ... "Sizni bezovta aylamish havotir, ko'pdan beri kaminaning-da tinchini buzmish. Uzlatga chekinib, xatog'a yo'l qo'yganimni angladim. O'z halovatim deb dinu diyonat halokatig'a befarq qarabmen".

"Bale! Illo, Olimning halovati dinning halokatidur. Ahli ilm bamisli sarhad posboni yanglig' sergak, xushyor turmog'i, ummatni, Islomni fitna-fasoddin qo'rimog'i lozim".

"Illo, men ham shu fikrg'a keldim. Juzjoniya qaytmoqqa rag'batim yetilgan chog' eshigimdan siz kirib keldingiz, ustoz"¹⁰.

Yozuvchi romanga nazarkanda va ahli sunna val jamoa aqidasini qattiq himoya qilgan Imom Moturidiy obrazini teskari bo'lgan johil, xo'ppa semiz, ochofat, molparast, qiyofasiz Mastonbibi obrazini bejizga kiritmagan. Adib biri o'ta ulug'vor, ikkinchisiga esa o'ta tuban ikki obrazini er-xotin qilib tasvirlash orqali ham o'zining badiiy niyatiga erishgan. Ya'ni Imom Moturidiy avliyosifat odam bo'lmish bilan birga nihoyatda oddiy banda ekaniga ham urg'u beradi¹¹. Shu bilan birga, asar sujet chizig'idagi Imom Moturidiy va Mastonbibi o'rtasidagi konflikt o'quvchiga islom dinidagi "Yomon xotinga sabr" konsepsiyasini to'liqroq anglashga imkon beradi.

"Mastonbibi" ismida ham yozuvchining o'ziga xos kinoyaviy tasviri aks etgan. Deyarali tashlandiq xotin Mastonbibi va Imom Moturidiy o'rtasidagi sujet chizig'idagi konflikt badiiy yechimini muallif ishonarli tasvirlaydi. Ayolning o'limi oldidan vidolashuv sahnasida uning: "Aslida, sizni g'oyat sevganman. Sevgim bois rashk o'tida yonganman. Siz ulug' olim edingiz, olimlar ichida tengsiz edingiz. Men buni anglardim. Anglaganim bois sizni hasham ichida ko'rgim kelardi. Men sizni hashamlarga, zebu ziyatlarga, molu davlatga loyiqsiz, debo'ylardim. Keyin balsam, ul arzimas matolar sizga loyiq emas ekan", -degan chuqur falsafiy iqrori keltirilgan. Moturidiyga bir umr azob bergan, johil, qiyofasiz ayol ruhiyatidagi

⁹ Bo'rixon L. Imom Moturidiy. -Toshkent: "Adabiyot", 2022, 98-99-betlar.

¹⁰ O'sha asar, 102-bet.

¹¹ Shukurova B. Yangi o'zbek nasrida etik va estetik ideal muammosi. (L.Bo'rixon va Q.Norqobil nasri misolida): Filol.fan.bo'yicha falsafa d-ri(PHD)...diss. -Toshkent. 2023.37-39-betlar.

bunday evrilish asardagi konfliktlarga yechim beradi va bu orqali kitobxon ruhiy poklanadi. Arastu aytgan katarsis¹² - ruhiy poklanish asarning mazkur o'rnida mahorat bilan tasvirlangan. Yaxshi badiiy asar insonni qayta tarbiyalaydi va qalban tozarishida muhim ro'l o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, asar Imom Moturidiyni kitobxonga qaytadan kashf qilish imkonini beradi. Alloma aytganidek, hayotdan kim neni istasa, unga erishgani kabi o'quvchilar ham asardan qidirganlarini topishlari shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent, 2018, 176-bet.
2. Umarov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –Tosheknt: "Xalq merosi", 2004, 124-bet.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent: "Xalq merosi", 2004. 108-bet
4. Qo'shjonov M. Tanlangan asarlar. –Toshkent: "Sharq". 2018, 338-bet.
5. Bo'rixon L. Imom Moturidiy. –Toshkent: "Adabiyot",
6. Shukurova B. Yangi o'zbek nasrida etik va estetik ideal muammosi. (L.Bo'rixon va Q.Norqobil nasri misolida): Filol.fan.bo'yicha falsafa d-ri(PHD)...diss. –Toshkent. 2023.37-39-betlar.
7. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. –Toshkent: "Akademnashr", 2010, 130-bet.

¹² Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. –Toshkent: "Akademnashr", 2010, 130-bet.